

**Jismoniy shaxslarga chakana kredit mahsulotlarini  
berish tartibiga 9-ilova**

Kreditning to'liq qiymati  
**(Kredit shartnomasi  
tuzilgan sanaga)**

**00,0 %** yillik foiz  
(rasshifrovka so'z bilan)

**Iste'mol kreditini berish to'g'risida \_\_\_\_ -sonli  
KREDIT SHARTNOMASI**

\_\_\_\_\_ shahri

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ yil  
kun raqam, oy so'z, yil raqam bilan yozilsin

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB (bundan bayon «Bank» deb nomlanadi) nomidan ishonchnomasida harakat qiluvchi Bankning \_\_\_\_\_ filiali Boshqaruvchisi F.I.O., bir tarafdan, va fuqaro \_\_\_\_\_ (F.I.O. to'liq) \_\_\_\_\_ (bundan buyon «Qarz oluvchi» deb nomlanuvchi), ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

**1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1. Bank Qarz oluvchiga mazkur kredit shartnomasida belgilangan shartlarda *ishlab chiqaruvchi/realizatsiya qiluvchi/xizmat ko'rsatuvchi/sotuvchi nomi/F.I.SH.* (bundan buyon matnda - Korxona) tomonidan *ishlab chiqarilgan/realizatsiya qilinadigan/sotilayotgan tovar/xizmat (avto rusumi) nomi* sotib olish (to'lash) maqsadida raqam (so'z bilan) oylik muddatga summa raqam bilan (summa so'z bilan) so'm miqdorida (asosiy qarz) moliyaviy iste'mol krediti (bundan buyon matnda - Kredit) taqdim qiladi.

1.2. Kreditning to'liq qiymati miqdori: yiliga (raqam va so'z bilan) %. Qarz oluvchiga berilayotgan kreditning to'liq qiymati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hisoblangan.

- Kreditning to'liq qiymatini hisoblash uchun quyidagilardan foydalanilgan:
- \_\_\_\_\_.\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga «\_\_\_\_\_» sug'urta kompaniyasining tariflari;
  - \_\_\_\_\_.\_\_\_\_ yil \_\_\_\_\_ holatiga «\_\_\_\_\_» baholovchi kompaniyaning tariflari;

- O'zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilangan notarial xizmatlar uchun davlat bojlari stavkalari;
- uchinchi shaxslar (kafil va h.k.) foydasiga to'lovlar.

Yuqorida qayd qilingan to'lovlar summasi kredit shartlari to'g'risidagi axborot varag'ida ko'rsatilgan. Ushbu Shartnomani imzolab, Qarz oluvchi Axborot varaqasini olganligini va tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi.

Agar Qarz oluvchi boshqa sug'urta kompaniyasi/baholovchi kompaniyasining xizmatlariga murojaat qilsa, kreditning to'liq qiymati ushbu Shartnoma tuzilgan kuni Bank tomonidan hisoblanganidan farq qilishi mumkin.

1.3. Kredit qaytarishlik, to'lovililik, ta'minlanganlik, muddatlilik, maqsadlilik shartlari asosida beriladi.

1.4. Asosiy tushunchalar:

1.4.1. Moliyaviy iste'mol krediti – Qarz oluvchiga ushbu Shartnoma shartlarida beriladigan kredit.

1.4.2. Kreditni berish sanasi – Bank tomonidan Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan iste'mol tovarlari/xizmatlarini sotuvchi/ishlab chiqaruvchi korxona yoki tashkilotning bank hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish sanasi.

1.4.3. Iste'mol krediti ob'ekti – Qarz oluvchining iste'mol ehtiyojlari uchun mo'ljallangan va *ishlab chiqaruvchi/realizatsiya qiluvchi* tashkilot nomi/*sotuvchi F.I.SH.* tomonidan *ishlab chiqarilgan* yoki *realizatsiya qilinadigan/sotiladigan* tovar/xizmat nomi.

## 2. KREDIT BERISH VA SO'NDIRISH TARTIBI

2.1. Ushbu shartnomaning 4.1-bandida nazarda tutilgan majburiyatlar Qarz oluvchi tomonidan bajarilishi sharti bilan, kredit Qarz oluvchining ssuda hisobvarag'idan kredit mablag'larini kreditning to'liq miqdorida yoki bir qismi miqdorida ishlab chiqaruvchi/realizatsiya qiluvchi yoki sotuvchining bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li orqali Qarz oluvchining arizasi asosida ajratiladi.

2.2. Kredit bo'yicha asosiy qarzni va foizlarni to'lash annuitet/differentsial usulda Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning ajralmas qismi bo'lган 1-ilovada nazarda tutilgan so'ndirish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

2.3. Agar kredit bo'yicha asosiy qarz va foizlarni so'ndirish sanasi bank ish kuni bo'lmasa, u holda to'lov keyingi bank ish kuniga o'tkaziladi. Agar kredit bo'yicha qarz so'ndirishning oxirgi sanasi va foizlarni to'lash sanasi bank ish kuni bo'lmasa, to'lash oldingi bank ish kuniga o'tkaziladi.

2.4. Agar Qarz oluvchi kredit bo'yicha asosiy qarzni to'lash sanasiga qadar kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirmasa, qarzni muddati o'tgan qarzlar hisobvarag'ida turgan har bir kuni uchun Shartnomaning 3.1-bandiga muvofiq foizlarni to'laydi.

2.5. Qarz oluvchidan qabul qilingan mablag'lar yoki Qarz oluvchining Bankdag'i har qanday hisobvaraqlarida mavjud bo'lган pul mablag'lari ushbu Shartnoma bo'yicha qarzini to'lash uchun quyidagi tartib va ketma-ketlikda yo'naltiriladi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlarini mutanosib ravishda;

- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- neustoyka (jarima va penyalar);
- kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

2.6. Ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish Qarz oluvchining arizalarini, Bankning toshiriqlarini bajarish va/yoki Bank tomonidan Qarz oluvchining Bankda ochilgan maxsus hisobvarag'idagi hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.7. Asosiy qarz to'lovi ajratilgan kredit hisobi yuritiladigan ssuda hisobraqamiga, kredit bo'yicha hisoblangan foizlar to'lovi esa ushbu Shartnoma doirasida kredit bo'yicha hisoblangan foizlar hisobi yuritiladigan hisobraqamga amalga oshiriladi. Asosiy qarz va unga hisoblangan foizlar to'langanlik sanasi deb mablag'larni ko'rsatilgan hisobvaraqlarga kelib tushgan kun hisoblanadi.

2.8. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni so'ndirish uchun pul mablag'larini Qarz oluvchi ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan miqdorda va muddatda o'zлari tanlagen istalgan shaklda, jumladan, o'z faoliyati natijalari bo'yicha daromadlarni, pensiya va boshqa daromadlarni o'tkazib berish yoki bankda ochilgan maxsus hisobraqamiga plastik kartadan to'lab berish yo'li bilan ta'minlashlari shart.

Topshirilgan mablag'lar kredit to'lashning navbatdagi sanasiga qadar Bankda ochilgan maxsus hisobvaraqa qadar kirdunga qadar hisobga olinadi.

Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaga muvofiq to'lovlarni to'lash uchun hisobvarag'iga kiritilgan pul mablag'lari summasi ushbu shartnomaning 1-ilovasida nazarda tutilgan miqdoridan ortiq bo'lsa, bank faqat navbatdagi to'lov miqdorini hisobdan chiqaradi, qoldiq summaning hisobi hisobraqamda yuritilishda davom etadi.

### **3. KREDIT UCHUN TO'LOV**

3.1. Bank kredit bo'yicha asosiy qarzning mavjud qoldig'iga foizlarni yillik qat'iy belgilangan/suzuvchi raqam bilan (so'z bilan) foiz hisobidan hisoblaydi. Bank kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish Ushbu shartnomaning 1-son Ilovasida nazarda tutilgan to'lash sanasi buzilganda foiz stavkasi oshadi, va Bank kredit bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan asosiy qarzning haqiqiy qoldig'iga yillik raqam (so'z bilan) foiz hisobida hisoblaydi.

3.2. Kredit qoldig'iga foizlar har ish kunining oxirida yiliga 365 kun va har oydagи haqiqiy kunlar soni asosida hisoblanadi. Hisoblash kreditning birinchi summasi taqdim qilingan kundan boshlab amalga oshiriladi.

3.3. Qarz oluvchi ushbu Shartnomaning 1-ilovasida nazarda tutilgan so'ndirish jadvaliga muvofiq kreditdan foydalanganlik uchun ushbu Shartnomani 3.1. va 3.2.-bandlariga muvofiq hisoblangan foizlarni Bankka to'lab beradi.

3.4. Foizlar belgilangan muddatlarda to'lanmaganda va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar hosil bo'lganda, Qarz oluvchi Bankka muddati o'tgan to'lovni har bir kuni

uchun 0,15 % miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 %idan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

#### **4. KREDIT QAYTARILISHINI TA'MINLASH**

4.1. Ushbu shartnoma bo'yicha taqdim qilinadigan kredit quyidagilar bilan ta'minlanadi:

4.1.1. \_\_\_\_\_ shahri, \_\_\_\_\_ tumani, \_\_\_\_\_ ko'chasi, \_\_\_\_-uy manzili bo'yicha joylashgan, (mulkdorning nomi) ga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan, bundan keyin «Garov predmeti» deb ataluvchi ko'chmas mulkning garovi (ipotekasi) bilan, (Bank, Qarz oluvchi(-lar) va (garovga qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) \_\_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan garov qiymatida. Garov (ipoteka)ning aniq shartlari tegishli notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi (lar) Garov predmetini Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qilish va sug'urtani ushbu shartnoma amal qilishining butun muddati davomida ta'minlash majburiyatini oladi(-lar). Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi bank hisoblanadi.

Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va garov predmetining notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu shartnomaga binoan kredit berilishidan oldin Bankka taqdim etilishi lozim.

Garov shartnomasini notarius huzurida tasdiqlash, shuningdek, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan to'laydi.

4.1.2. Bundan keyin «Garov ob'ekti» deb ataluvchi, nominal qiymati raqam bilan (summa so'z bilan) so'm bo'lgan, raqam bilan (soni so'z bilan) \_\_\_\_-dona, (Mulkdorning nomi)ga tegishli aktsiyalarning garovi bilan, (Bank, Qarz oluvchi(-lar) va (garovga qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) \_\_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan garov qiymatida. Garovning aniq shartlari tegishli notarial tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Garov shartnomasini notarius huzurida rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan ko'taradi.

4.1.3. (Kafilning nomi)ning kafilligi bilan, bundan keyin «kafil» deb ataladi. Kafillikning aniq shartlari kredit taqdim etilgunga qadar Qarz oluvchi(-lar) tomonidan rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan Bank, Qarz oluvchi(lar) va Kafil o'rtaida tuzilgan tegishli kafillik shartnomasida ko'zda tutiladi. Kafillik shartnomasini tuzish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z mablag'lari hisobidan to'laydi.

4.1.4. (DYHXX organlari tomonidan ro'yxatga olingan ikkilamchi bozordagi avtotransport vositasi garovga olinganda) «\_\_\_\_\_» rusumdag'i, \_\_\_\_\_ yilda ishlab chiqarilgan, rangi \_\_\_\_\_, dvigatel raqami \_\_\_\_\_, kuzov raqami \_\_\_\_\_, davlat raqami \_\_\_\_\_, bundan keyin «Garov ob'ekti» deb ataluvchi, (Mulkdorning nomi)ga tegishli avtomobil/maxsus texnikaning garovi bilan, Bank va Qarz oluvchi(lar) (garovga beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa, (Bank, Qarz oluvchi(-

lar) va (garovga qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) \_\_\_\_\_ yildagi \_\_\_-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan ro'yxat va summa raqam bilan (summa so'z bilan) garov qiymatida. Garovning aniq shartlari tegishli tarzda notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi(lar) Garov predmetini Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qilish va sug'urtani ushbu shartnoma amal qilishining butun muddati davomida ta'minlash majburiyatini oladi(-lar). Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi bank hisoblanadi.

Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov shartnomasi Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu shartnomaga binoan kredit berilish sanasiga qadar Bankka taqdim etilishi lozim. Garov shartnomasini notarius huzurida rasmiylashtirish, shuningdek, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan to'laydi.

4.1.5. Mulk huquqi asosida (Mulkdorning nomi)ga tegishli mol-mulkning (bundan keyin Garov predmeti deb ataladi) garovi bilan, Garov predmetining (Bank, Qarz oluvchi(-lar) va (garovga qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) \_\_\_\_\_ yildagi \_\_\_-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan garov qiymati \_\_\_\_\_ (/00) so'mni tashkil qiladi.

Garovning aniq shartlari tegishli notarial tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi(lar) Garov predmetini Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qilish va sug'urtani ushbu shartnoma amal qilishining butun muddati davomida ta'minlash majburiyatini oladi(-lar). Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi bank hisoblanadi.

Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va garov predmetining notarial tasdiqlangan garov (ipoteka) shartnomasi Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu shartnomaga binoan kredit berilishidan oldin Bankka taqdim etilishi lozim.

Garov shartnomasini notarius huzurida tasdiqlash, shuningdek, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan to'laydi.

4.1.6. (Sug'urta kompaniyasining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda to'liq nomi) sug'urta kompaniyasining, bundan keyin «Sug'urtalovchi» deb yuritiladi, kreditni qaytarilmaslik xataridan raqam bilan (summa so'z bilan) summadagi sug'urta polisi. Ushbu Shartnoma bo'yicha kredit taqdim etilgunga qadar Bank Sug'urtalovchi bilan kredit qaytarilmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha summa raqam bilan (summa so'z bilan) summada sug'urta shartnomasini tuzadi va Sug'urtalovchiga sug'urta mukofotini to'lab beradi. Qarz oluvchi(-lar) to'langan sug'urta mukofoti summasini Bankka Bank tomonidan sug'urta mukofoti to'langan kunda qoplab beradi(-lar).

4.1.7. summa raqam bilan (summa so'z bilan) miqdoridagi (Omonatchining nomi) maqsadli jamg'arma garov omonati.

Agarda kredit hisobiga sotib olinayotgan va DYHXX organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan birlamchi bozordagi avtotransport vositasi garovga olinganda va vaqtinchalik sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi olinganda.

4.1.8. Kredit hisobiga sotib olinayotgan “\_\_\_\_\_” rusumli avtotransport vositasi, bundan keyin «Garov ob'ekti» deb ataluvchi, (Mulkdorning nomi)ga tegishli avtomobilning garovi bilan, Bank va Qarz oluvchi(lar) (garovga beruvchi uchinchi shaxs bo'lsa, (Bank, Qarz oluvchi(-lar) va (garovga qo'yuvchining nomi) - agar garovga qo'yuvchi uchinchi shaxs bo'lsa) tomonidan imzolangan) \_\_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasiga binoan kelishilgan ro'yxat va summa raqam bilan (summa so'z bilan) garov qiymatida. Garovning aniq shartlari tegishli tarzda notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov shartnomasi bilan belgilanadi. Qarz oluvchi(lar) Garov predmetini Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali sug'urta qilish va sug'urtani ushbu shartnoma amal qilishining butun muddati davomida ta'minlash majburiyatini oladi(-lar). Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi bank hisoblanadi.

Tegishli tarzda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va notarial yoki bank tomonidan mustaqil ravishda tasdiqlangan garov shartnomasi Qarz oluvchi(-lar) tomonidan ushbu shartnomaga binoan Garov predmeti DYHXX organlari tomonidan ro'yxatga olingen kundan boshlab 20 (yigirma) kalendarъ kunidan kechiktirmagan holda Bankka taqdim etilishi lozim. Garov shartnomasini notarius huzurida rasmiylashtirish (agar notarial tartibda rasiylashtirilsa), shuningdek, sug'urta shartnomasini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni Qarz oluvchi o'z hisobidan to'laydi.

4.1.9. (Sug'urta kompaniyasining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holda to'liq nomi) sug'urta kompaniyasining, bundan keyin «Sug'urtalovchi» deb yuritiladi, kreditni qaytarilmaslik xataridan raqam bilan (summa so'z bilan) summadagi sug'urta polisi. Ushbu Shartnoma bo'yicha Kredit hisobiga sotib olinayotgan “\_\_\_\_\_” rusumli avtotransport vositasi garov sifatida taqdim etilgunga qadar bo'lган muddatga Bank Sug'urtalovchi bilan kredit qaytarilmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha summa raqam bilan (summa so'z bilan) summada sug'urta shartnomasini tuzadi va Sug'urtalovchiga sug'urta mukofotini to'lab beradi. Qarz oluvchi(-lar) to'langan sug'urta mukofoti summasini Bankka Bank tomonidan sug'urta mukofoti to'langan kunda qoplab beradi(-lar).

4.2. Agar Qarz oluvchi ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish ushbu Shartnomada belgilangan sanada amalga oshirishga qodir bo'lmaydigan vaziyat yuzaga kelsa, Bank O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq undiruvni ushbu Shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan kredit bo'yicha ta'minotga qaratish istisnosiz huquqiga ega bo'ladi.

4.3. Undiruv ushbu Shartnomaga binoan qabul qilingan garov ta'minotiga qaratilganda, Bank undiruv uchun birinchi navbatdagi predmetni o'z ixtiyori bo'yicha bir tomonlama tartibda tanlash huquqini o'zida qoldiradi. Undiruvni undiruv ob'ektlarining biriga qaratilishi Bankni boshqa undiruv ob'ekt(lar)iga undiruv qaratish huquqini cheklamaydi.

4.4. Qarz oluvchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarining bajarilishi uchun O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq undirish qaratilishi mumkin bo'lган o'ziga qarashli mol-mulk bilan javobgardirlar.

## 5. BANK HUQUQLARI

5.1. Kreditlash jarayonida Bank Qarz oluvchining moliyaviy holati, kreditdan maqsadli foydalanish, garov predmeti mavjudligini, holatini tekshirish huquqiga ega. Bunday tekshiruvlarni o'tkazish davriyligi Bank tomonidan belgilanadi.

5.2. Ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish muddati kelganida, Bank Qarz oluvchining Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, ular bo'lmananida esa – har qanday, shu jumladan boshqa banklardagi boshqa hisobvaraqlardan ham ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni so'ndirish uchun aktseptsiz va istisnosiz tartibda mablag'larni yechib huquqiga ega bo'ladi.

5.3. Quyidagi hollarda:

- Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olingan majburiyatlar buzilganda va/yoki bajarilmaganda va/yoki tegishli tarzda bajarilmaganda;
- Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashganda;
- Garov predmeti (predmetlari) va/yoki uning (ularning) bir qismi nobud bo'lganda, narxi pasayganda, qisman yoki to'liq yo'qotilganda;
- Kafilning moliyaviy holati yomonlashganda;
- Bank tomonidan Qarz oluvchi noto'g'ri ma'lumotlar taqdim qilgan holatlari aniqlanganda;
- Qarz oluvchi bank nazoratidan bosh tortganda;
- Bank tomonidan kreditdan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlanganda;
- Kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlari o'z vaqtida to'lanmaganda;
- Ushbu Shartnomada belgilangan muddatda tovar sotilganligi/xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqllovchi hujjatlar maqsadli ishlatilganligini tasdiqlash uchun – hisob faktura, xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, kvitantsiyalar yoki kredit taqdim qilingan paytdan e'tiboran 1 oy mobaynida tovarlarni berish/xizmatlarni ko'rsatish holatini tasdiqllovchi boshqa hujjatlar taqdim qilinmaganda;
- Kredit qaytarilmaslik xatarini oshiradigan biror bir omillar paydo bo'lganda, Bank quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:
  - ushbu Shartnomani muddatidan oldin bir tomonlama bekor qilish va/yoki Kreditni muddatidan oldin undirish, shu jumladan undiruvni garov predmetiga va/yoki garov predmetining bir qismiga qaratish va/yoki Kafil va/yoki Sug'urtalovchiga talabnama taqdim etish. Qarz oluvchi/Kafil Bankka olingan kreditni qaytarishi, kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni tegishli xabarnoma (talabnama) olingan sanadan e'tiboran 5 (besh) kalendarъ kuni mobaynida to'lashi shart;
  - ushbu Shartnoma bo'yicha yangi summalarini va/yoki yangi kreditlar berishni to'xtatish;

• Qarz oluvchining Bankda ochilgan har qanday hisobvarag'idan, ularda mablag' bo'limgan taqdirda esa – har qanday boshqa hisobvaraqlardan, shu jumladan boshqa banklardagi hisobvaraqlardan pul mablag'larini ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlarni va/yoki boshqa to'lovlarini so'ndirishga yo'naltirish uchun aktseptsiz va istisnosiz hisobdan chiqarish .

5.4. Bank ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlarini to'liq yoki qisman boshqa shaxsga faqat Qarz oluvchining roziligi bilan o'tkazishga haqli.

5.5. Bank Qarz oluvchini kreditni qaytarish jadvaliga muvofiq navbatdagi to'lovlar sanasi to'g'risida oldindan xabardor qilishga haqlidir.

5.6. Kredit mablag'lari hisobidan to'langan tovar qaytarib berilishi munosabati bilan Sotuvchidan Qarz oluvchining hisobiga kelib tushgan pul mablag'lari Bank tomonidan mustaqil ravishda kredit bo'yicha asosiy qarzni so'ndirishga yo'naltiriladi.

5.7. Bank Qarz oluvchi tomonidan kreditni berish muddati mobaynida kreditdan foydalanimagan taqdirda ushbu Shartnomani Qarz oluvchini bu haqida yozma ravishda ogohlantirgan holda bir tomonlama bekor qilishga haqli.

5.8. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra ushbu Shartnomada ko'rsatilgan har qanday huquq/talablarni qo'llashi mumkin. Ushbu huquqlar/talablarning qo'llanilmasligi yoki qisman qo'llanishi ushbu huquq/talablarni rad qilishni anglatmaydi va ular ushbu Shartnoma amal qilish muddati mobaynida har qanday vaqtida qo'llanishi mumkin.

## **6. BANK MAJBURIYATLARI**

6.1. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

6.1.1. Qarz oluvchiga ushbu Shartnoma shartlarida kredit mablag'larini berish;

6.1.2. Foizlarni ushbu Shartnomaning 3.1. va 3.2. bandlariga muvofiq hisoblash;

6.1.3. Kredit shartnomasi bo'yicha muddati o'tgan qarzlarni qaytarish bo'yicha majburiyatlar holati, muddatlari, summasi, tarkibi va bajarilmaslik oqibatlari to'g'risida Qarz oluvchini xabardor qilish.

6.1.4. Bank Qarz oluvchi(-lar)ga ushbu shartnomada nazarda tutilgan kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu iste'mol krediti bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan Qarz oluvchiga kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan yozma yoki masofaviy aloqa kanallari orqali xabarnoma yuborish.

6.1.5. Agar iste'mol kreditini qaytarish jadvali rasmiylashtirilgandan so'ng iste'mol krediti bo'yicha moliyalashtirishni boshlash muddatlari yoki shartnomada ko'zda tutilgan suzuvchi foiz stavkasi o'zgarishi, iste'mol krediti shartnomasining shartlari tomonlar o'rtasida qayta ko'rib chiqilishi (shu jumladan, iste'mol kreditining restrukturizatsiya qilinishi), Qarz oluvchi tomonidan iste'mol krediti qisman muddatidan oldin so'ndirilishi munosabati bilan iste'mol krediti bo'yicha to'lovlarini amalga oshirish sanalari va muddatlari yoki oraliq iste'mol krediti to'lovlarining miqdorlari o'zgarganda Bank iste'mol kreditini qaytarish jadvalini yangidan rasmiylashtirib, Qarz oluvchiga taqdim qilish.

Bunda, kreditni qaytarish jadvali yangidan rasmiylashtirilishi bilan undan oldin mavjud bo'lgan kreditni qaytarish jadvali o'z kuchini yo'qotadi.

6.1.6. Bank Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnomaga asosan iste'mol krediti bo'yicha qarzdorlik summasini to'lash majburiyati to'liq bajarilgan sanadan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmagan holda mazkur iste'mol krediti bo'yicha:

- garovda turgan mulkni taqiqdan chiqarish;
- garov sifatida bo'lgan mol-mulkka nisbatan bankning huquqlari to'g'risidagi yozuvni Garov reestridan chiqarish.

## **7. QARZ OLUVChINING HUQUQLARI**

7.1. Qarz oluvchi kreditni ushbu Shartnomada belgilangan muddatlardan ilgari to'lashga haqli. Asosiy qarzni so'ndirishdan avval Qarz oluvchi ushbu sanagacha hisoblangan foizlarni to'lashlari shart.

7.2. Qarz oluvchi tomonidan Bankdan pul mablag'lari olinguniga qadar bo'lgan davrda ushbu Shartnomada tuzilganidan so'ng kreditni olishdan bosh tortishga haqli.

7.3. Qarz oluvchi ushbu Shartnomaning 2.5-bandida belgilangan ketma-ketlikka rioxal qilgan holda kreditni to'liq summasini yoki qisman muddatidan avval so'ndirish va foizlarni to'lashga haqlidir.

Kreditni muddatidan oldin so'ndirish Qarz oluvchi tomonidan Qarz oluvchining arizasi asosida amalga oshiriladi.

Kredit qisman muddatidan oldin qaytarilgan taqdirda, foizlarni to'lash bo'yicha har oylik to'lov qayta hisob-kitob qilinganidan so'ng muddatidan avval qisman so'ndirish amalga oshirilgan davrdan boshlab yangi summada hisoblanadi va yangi summasi Shartnomada belgilangan muddatlarda so'ndirilishi lozim bo'ladi.

7.4. Qarz oluvchi kredit bo'yicha garovda turgan o'zining depozitidagi (omonatidagi) mablag'larini kredit shartnomasi davrining xohlagan vaqtida depozit (omonatning) amal qilish muddatidan qat'i nazar, mazkur kreditni qaytarish uchun yo'naltirish huquqiga ega.

Bunda, Qarz oluvchi kredit bo'yicha garovda turgan o'zining muddatli depozitidagi (omonatidagi) mablag'larini shartnomada ko'rsatilgan depozit (omonat) muddati tugagunga qadar kreditni qaytarish uchun yo'naltirmoqchi bo'lsa, u bu haqda bankni depozitni (omonatni) qaytarishni mo'ljallayotgan sanadan kamida 1 (bir) oy oldin xabardor qilishi lozim.

## **8. QARZ OLUVCHINING MAJBURIYATLARI**

8.1. Qarz oluvchi quyidagi majburiyatlarni zimmasiga oladi:

8.1.1. Kreditdan faqat ushbu Shartnomaning 1.1-bandiga muvofiq maqsadli foydalanish va Bankka tovarni sotish/xizmatlarni ko'rsatishni tasdiqlaydigan hujjatlar - schet-faktura, xizmatlar ko'rsatilganligi haqidagi dalolatnomalar, kvitantsiyalar va kredit berilgan paytdan e'tiboran 1 oy mobaynida tovarlar berilishi/xizmatlar ko'rsatilishini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar, shuningdek agar kredit hisobiga Avtomobil xarid qilinayotgan bo'lsa, texnik pasportni maqsadli foydalanishni tasdiqlash uchun taqdim qilish;

8.1.2. Kreditdan foydalanish jarayonida kreditlashning asosiy printsiplari: muddatlilik, qaytarishlik, maqsadlilik, to'lovilik, ta'minlanganlik printsiplariga amal qilish;

8.1.3. Ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan boshqa to'lovlar to'lanishini amalga oshirish;

8.1.4. Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaga muvofiq Bank oldidagi majburiyatlari bajarilmaslik va/yoki lozim darajada bajarilmaslik xavfiga olib kelishi mumkin bo'lgan hech qanday majburiyat olmaslik va choralarni qabul qilmaslik;

8.1.5 Bankning nazorat funktsiyalarini amalga oshirish uchun:

- Bank xodimlariga har qanday manbalardan foydalangan holda, shu jumladan ular tomonidan yashash joyi, ish joyiga tashrif buyurish yo'li bilan kredit olish uchun taqdim qilingan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish va qayta tekshirishga imkon yaratish;

- Qarz oluvchining joriy to'lov qobiliyatini tahlil qilish uchun yiliga bir marta Qarz oluvchining daromadlarini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilish;

- Bank tomonidan Garov predmeti mavjudligi, saqlash sharoitlarini tekshirish uchun Bankka barcha sharoitlarni yaratish va to'sqinlik qilmaslik, Bank tomonidan Garov predmeti bo'yicha talab qilinadigan barcha ma'lumotlarni Qarz oluvchi tomonidan tegishli so'rov olingan kundan e'tiboran 5 (besh) kalendar kuni mobaynida taqdim qilish;

- Garov predmetini ko'zdan kechirishi dalolatnomalarini o'z vaqtida imzolash;

- Bankning yozma so'roviga binoan ushbu so'rov olingan kundan e'tiboran 5 (besh) kalendar kuni ichida shaxsga doir ma'lumot, shaxsiy, biografik yoki boshqa ma'lumotlarni taqdim etish.

8.1.6. Qarz oluvchi tomonidan kredit hisobidan to'langan tovar/xizmat qaytarilgan taqdirda tovar/xizmat uchun kredit hisobidan to'langan pul mablag'lari tegishli hisobvaraqla qaytarilishini ta'minlash;

8.1.7. Ushbu Shartnomaning 4.1-bandiga muvofiq va unda ko'rsatilgan muddatlarda tegishli shartnomalar/hujjatlarni tuzish/imzolash/rasmiylashtirish;

8.1.8. Bank talabiga ko'ra quyidagi hollarda kredit qaytarilishini qo'shimcha ta'minlash:

- Qarz oluvchiining moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
- Kafilning moliyaviy ahvoli yomonlashganda;
- Garov predmeti (predmetlari) va/yoki uning (ularning) bir qismi nobud bo'lganda, narxi pasayganda, qisman yoki to'liq yo'qotilganda;

• Kredit qaytmaslik xatarini oshiradigan boshqa omillar paydo bo'lganda,

8.1.9. Bank talabiga ko'ra Bank ko'rgan barcha xarajat va zararlarni qoplash, shu jumladan kredit bo'yicha (asosiy qarz, foizlar va boshqa to'lovlar) qarzdorlikni majburiy ravishda va/yoki muddatidan oldin undirish uchun choralarni ko'rish munosabati bilan;

8.1.10. Kredit olish uchun hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgarganligi, shu jumladan pasport ma'lumotlari, propiska, haqiqiy yashash joyini ro'yxatga olish, ish joyi, familiya, ismi, otasining ismi, uy, ish yoki mobil telefoni raqami o'zgarganligi, shuningdek

Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnama bo'yicha majburiyatlarini bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida bunday o'zgarishlar, holatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran 5 (besh) kalendarъ kun mobaynida Bankni xabardor qilish va zarurat tug'ilganda Bank bilan kredit hujjatlariga qo'shimcha kelishuvlarni imzolash. Bank Qarz oluvchi tomonidan xabarnoma olinmaganligi yoki ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlar Qarz oluvchi tomonidan bajarilmaslik oqibatida xabarnomalar boshqa shaxs tomonidan olinganligi uchun javobgar bo'lmaydi;

8.1.11. Bankka ushbu Shartnama va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan har qanday huquqlarini amalga oshirishda Bankka to'sqinlik qilmaslik;

8.1.12. Moliyaviy iste'mol krediti olinganligi to'g'risida Korxonani yozma ravishda oldindan xabardor qilish;

8.2. Qarz oluvchi Bankning yozma rozilgisiz ushbu Shartnama bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga to'liq yoki qisman o'tkazishga haqli emas.

8.3. Ushbu bilan Qarz oluvchi Bankka ushbu Shartnama shartlaridan kelib chiqadigan kredit bo'yicha asosiy qarz, foizlar va/yoki boshqa to'lovlarni to'lash muddati kelganda, Qarz oluvchining Bankdagi har qanday hisobvarag'idan, shuningdek Qarz oluvchiining boshqa banklardagi hisobvaraqlaridan mablag'larni aktseptsiz, istisnosiz va chaqirib olinmaydigan hisobdan chiqarish huquqni taqdim qiladi.

## **9. TOMONLARNING JAVOBGARLIKHLARI**

9.1. Shartnama majburiyatları tomonlarning biri tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, ushbu tomon boshqa tomonga yetkazilgan zararlarni qoplab beradi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

9.2. Hisoblangan foizlar belgilangan muddatda to'lanmagan hamda ular bo'yicha muddati o'tgan Qarz oluvchiliklar yuzaga kelgan xollarda, Qarz oluvchi Bankka kechiktirilgan har bir kun uchun, kechiktirilgan to'lov summasining 0,15 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda penya to'laydi.

9.3. Kredit mablag'larini belgilangan muddatda ajratishni kechiktirganligi uchun Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan kredit miqdorning 0,10 % miqdorida, lekin kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda penya to'laydi.

## **10. FORS-MAJOR**

10.1. Yengib bo'lmas kuch oqibatida yuzaga kelgan holatlar(fors-major): tabiiy ofatlar, epidemiya, suv toshqini, ushbu Shartnama taraflarining nazorati ostida bo'lмаган boshqa hodisalarning yuzaga kelishi taraflarni ushbu Shartnama bo'yicha majburiyatlarini bajarilmaganligi yoki o'z vaqtida bajarilmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qiladi. Agar majburiyatlarini bajarishga fors-major holatlari to'sqinlik qilayotgan taraf boshqa tarafni bunday holatlar yuzaga kelganligi to'g'risida 10 kunlik muddat ichida xabardor qilmasa, bu taraf ushbu holatlarni fors-major holati sifatida havola qilish huquqidан

mahrum bo'ladi. Yengib bo'lmas kuch holatlarini isbotlash majburiyati o'z majburiyatlarini bajarmagan tarafga yuklatiladi.

## **11. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

11.1. Qarz oluvchi tomonidan kredit bo'yicha mablag'lardan maqsadsiz foydalaniyatgani aniqlanganda, Bank undan kreditdan maqsadsiz foydalanish summasidan 50 (ellik) foiz miqdorida jarima undirishga haqli. Jarima to'lanishi Qarz oluvchini ushbu Shartnoma bo'yicha majburiylarni bajarishidan ozod qilmaydi.

11.2. Bank Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning 8.1.12-bandida nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganligini nazorat qilmaydi va javob bermaydi.

11.3. Yengib bo'lmas kuch oqibatida yuzaga kelgan holatlar(fors-major): tabiiy ofatlar, epidemiya, suv toshqini, ushbu shartnoma Tomonlari nazorat qila olmaydigan boshqa voqelar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagani yoki o'z vaqtida bajarilmagani uchun Tomonlarni javobgarlikdan ozod qiladi. Agar majburiyatlar bajarilishiga fors-major holatlari to'sqinlik qilayotgan Tomon ikkinchi Tomonni shunday holatlar boshlanganligi to'g'risida 10 kunlik muddat ichida xabardor qilmasa, bunday Tomon qayd qilingan holatlarni fors-major holatlari deb dalil sifatida ko'rsatish huquqini yo'qotadi. Yengib bo'lmas kuch holatlarini isbotlash majburiyati o'z majburiyatlarini bajarmagan Tomon zimmasida bo'ladi.

## **12. BOSHQA SHARTLAR**

12.1. Ushbu Shartnoma tomonlar imzolagan kundan e'tiboran kuchga kiradi hamda Bank va Qarz oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olingan barcha majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

12.2. Ushbu Shartnoma shartlarining har qanday o'zgarishi tomonlarning o'zaro roziligi bilan amalga oshiriladi va yozma kelishuv bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu Shartnomaga har qanday qo'shimcha kelishuvlar, agar ular Bank ishtirosiz tuzilgan bo'lsa va qayd qilingan kelishuvlarda Bank imzosi va muhri bo'lmasa, yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

12.3. Nizolar yuzaga kelgan taqdirda bank yozishmalari ushbu Shartnoma bo'yicha ikkala tomon majburiyatlarining eng ustun dalili hisoblanadi.

12.4. Taraflarning bir-birlariga talabnomalari (xabarnomalar, xatlar va boshqa hujjatlar), agar ular yozma shaklda tayyorlangan bo'lsa, Qarz oluvchi/Bank tomonidan imzolangan va ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Qarz oluvchi/Bankning manzillariga buyurtmali pochta jo'natmasi bilan yuborilgan yoki Qarz oluvchi/Bank tomonidan yetkazib berilgan bo'lsa, imzo chektirilib qo'lga topshirilgan bo'lsa yoxud Masofadan xizmat ko'rsatish kanallari yoki faks orqali yuborilgan bo'lsa, tegishlicha yuborilgan deb hisoblanadi.

Xabarnoma pochta bo'linmasi tomonidan pochta kvitantsiyasida qo'yilgan sanadan, xabarnomada ko'rsatilgan kur'yer tomonidan xabarnoma olingan sanadan (kur'yer tomonidan yetkazilgan taqdirda), yoki faksimil aloqa yordamida yuborilgan sanadan yoki xabarnoma Masofali xizmat ko'rsatish kanallari bo'yicha yuborilgan sanadan yuborilgan

deb hisoblanadi. Ushbu Sharhnomada nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda ikkala tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladi.

Bankning har qanday xabarnomasi, so'rovi yuborilgan sanadan e'tiboran uchinchiligi kalendarъ kuni taqdim qilingan, xat-xabarlar esa Qarz oluvchi tomonidan olingan deb hisoblanadi.

12.5. Ushbu sharhnomada nazarda tutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda ikkala tomon O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga tayanadi.

12.6. Ushbu Sharhnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq, shu jumladan uni tuzish, o'zgartirish, ijro etish, buzish, bekor qilish, to'xtatish va haqiqiy emasligi bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar, kelishmovchiliklar va da'volar Taraflar tomonidan talabnomalarni ushbu Sharhnomanining 12.4-bandida ko'rsatilgan tartibda yuborish orqali hal qilinadi.

12.7. Talabnomalar taqdim etilgan taraf, talabnomalar olingan kundan boshlab 15 kun ichida (ushbu Sharhnomanining 5.3-bandida ko'rsatilgan xabarnoma(talabnomalar)ni yuborilgan holatlar bundan istisno) unga javob berishga majburdir.

12.8. Talabnomasi rad etilgan (qisman rad etilgan) yoki belgilangan muddatda da'voga javob olmagan Taraf \_\_\_\_\_ fuqarolik sudiga\* da'vo arizasi bilan murojaat qilishga haqlidir.

12.9. Ushbu Sharhnomalar bilan Qarz oluvchi(-lar), kredit tarixini shakllantirish uchun, Bank tomonidan Kredit axboroti davlat reestri, Kredit byurosi, Garov reestri Davlat unitar korxonasiga ushbu Sharhnomanining tuzilish shartlari, taqdim etilgan ta'minot va majburiyatlarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etilishiga roziligini bildiradi.

12.10. Ushbu Sharhnomalar Taraflarning har biri uchun bir nusxadan bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki/uch nusxada tuzilgan.

### **13. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI**

\*Izoh.

1) Kredit sharhnomasining 12.8. bandida sudning nomi Amaliyot boshqarmasi/filiallar tomonidan mustaqil ravishda Amaliyot boshqarmasi/filiallarning joylashgan joyiga qarab ko'rsatiladi.